Fanlar akademiyasi prezidenti Qoraqalpog’istonda

2021-yil 29-mart kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik B.Yuldashev hamda vitse-prezident S.Mirzayev ishtirokida O’zR FA Qoraqalpog’iston bo’limi ilmiy xodimlari bilan uchrashuv tashkil etildi.

FA prezidenti B.Yuldashev o’z nutqida mamlakatimizda ilm-fanga berilayotgan e’tibor to’g’risida gapirib, ilmiy faoliyat, kelgusida amalga oshiriladigan ishlar, kamchiliklar va yutuqlar haqida to’xtalib o’tdi. Shuningdek, vitse-prezident S.Mirzayev 2021-yil fevral oyida o’tkazilgan attestatsiya natijalariga batafsil to’xtaldi va istiqboldagi ishlar rejalar haqida ma’lumot berdi.

Suhbat jarayonida O’zbekiston Respublikasi qonunlari, Davlat va Hukumat qarorlari, farmon va farmoyishlarining ijrosi bo’yicha ham alohida to’xtalib o’tildi.

Uchrashuv so’nggida Qoraqalpog’iston Respublikasida ilm-fanni yanada rivojlantirishga qaratilgan istiqboldagi rejalar va yo’nalishlar belgilab olindi.